

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**THE ROLE OF ASHTARKHANI RULERS IN THE CONSTRUCTION OF PUBLIC AND ECONOMIC STRUCTURES****Karimjon Nasrilloev***Master's student**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Ashatarkhani, Labi pool, Kokaldosh, Joybori Kalon**Abstract:** In this article, the public and economic structures built by the Ashtar Khan rulers in the Bukhara Khanate and their place in the social and economic life are highlighted.**Received:** 16.08.23**Accepted:** 18.09.23**Published:** 20.09.23**ASHTARXONIY HUKMDORLARNING JAMOAT VA XO'JALIK INSHOOTLARI QURILISHIDAGI O'RNI****Karimjon Nasrilloev***magistratura talabasi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Ashatarxoniylar, Labi hovuz, Ko'kaldosh, Jo'ybori Kalon**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro xonligida ashtarxoniylar taomonidan qurilgan jamoat va xo'jalik inshootlari hamda ularning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi o'rnini yoritilgan**РОЛЬ ПРАВИТЕЛЕЙ АШТАРХАНИ В ПОСТРОЕНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ СТРУКТУР****Каримджон Насриллоев***студент магистратуры**Национальный университет Узбекистана**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Ашатархани, Бассейн Лаби, Кокалдош, Джойбори Калон**Аннотация:** В данной статье освещаются общественно-экономические структуры, построенные правителями Аштар-хана в

KIRISH

Buxoro xonligida ashtarxoniylar boshqaruvi ostida mamlakatda xonlar tomonidan madaniy hayotga ham alohida e'tibor qaratiladi. Garchi davlat yaxlitligi uchun olib borilayotgan urushlar ko'p bo'lsa-da, xonlar, shu bilan birgalikda yirik mulkdorlar, amaldorlar, qabila yetakchilari ham masjid-u madrasa va shu kabi inshootlar qurilishiga homiylik qilganlar, madaniy soha yuksalishi uchun davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda inshootlar qurilishlariga homiylik qilganlar. Buxoroda sulolalar almashinuvi ko'p kuzatilgan bo'lishiga qaramay, shaharda qurilgan binolar o'zining mahobati, bezak uslublari, foydalanish jihatlariga ko'ra o'zgarib boravergan. Ayniqsa, Buxoro va Samarqand shaharlarida me'morchilik binolarida avval mavjud bo'lgan an'analardan foydalanilgan va ularga qisman o'zgartirishlar kiritib borilgan. "Binolarning tashqi va ichki interyerlarini bezatishda sirkor g'isht parchalaridan foydalanish davom etgan".

ASOSIY QISM

Buxoro shayboniylar sulolasi taxtdan ketib, ashtarxoniylar sulolasi vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ham o'zining poytaxt maqomini saqlab qoldi. Buxoro xonligi tasarrufiga kirgan hududlarda shaharsozlik va me'morchilik avvalgi mahobat bilan bo'lmasa-da ancha rivoj topdi. Ko'plab ma'rifiy va ma'muriy xo'jalik binolari, jumladan, "masjid, madrasa, karvonsaroy, bozor, xonaqoh va hammomlar barpo etiladi. Faqatgina ularning tashqi qiyofasidagi ayrim o'zgarishlarni inobatga olmaganda, avvalgi davrlar an'anasi mavjud bo'lgan".

Buxoro xonlik poytaxti bo'lgan davrda alohida me'morchilik maktablari tashkil etilib, nafaqat poytaxtda, balki boshqa shaharlarda ham shaharsozlik borasida katta ishlar amalga oshirilgan. Ushbu davrda Buxoro me'morchilik maktabi namoyondalari tomonidan barpo etilgan inshootlarda alohida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamagan, ya'ni har biri alohida geometrik chizma asosida tuzilgan. Me'morchilik inshootlarining interyer qismlari yangi bunyod etilayotganlari uchun rivojlanish yo'lida manba bo'lgan va bu an'ana keyingi davr tarixiy yodgorliklariga ko'chib o'tgan.

O'rta Osiyo me'morchiligining go'zal kompozitsion ko'rinishi sanalmish Labi Hovuz ansambli bir necha tarixiy me'moriy inshootlardan tashkil topgan. Ansambl inshootlari ichida dastlab qurilgani Ko'kaldosh madrasasi sanaladi. 1569- yilda shayboniy hukmdor Abdullaxon II tomonidan O'rta Osiyoda yirik madrasa qurdirishga qaror qilinadi. Bu holatdan kelib chiqib davlat amaldori Qulbobo Ko'kaldosh qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Inshoot O'rta Osiyo madrasalari orasida eng kattasi hisoblanib, o'z ichiga 160 ta hujrani qamrab olgan. Ammo ushbu o'quv binosi mablag' va turar joyni tejash maqsadida ikkita gumbazli qilib barpo etilgan. Inshoot o'z davri me'morchilik qoidalariga ko'ra mozaika va mayolika bilan bezatilgan. Ichki qismida masjid va xujralari mavjud bo'lgan. Lekin bu paytda u ansambl shakliga kirmagan edi.

XVII-XVIII asr o'rtalarida ashtarxoniylar boshqaruvi davrida me'morchilik ham o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlangan. Mamlakatning barcha hududlarida ko'plab masjid, madrasalar, bozorlar, karvonsaroylar, rabotlar, hammomlar, sardobalar va boshqa me'moriy inshootlar barpo etiladi.

XVIII asrning birinchi yarmidagi tasviriy san'at va arxitekturaning ajoyib yodgorliklari hozirga qadar to'liq yetib kelmagan. 1712-yilda Buxoro Registonining g'arb tomonida qurilgan, badiiy me'morchilik sifatleri jihatidan XVII asrda qurilgan binolardan nisbatan orqada turuvchi Bolohovuz masjidi bu davrning eng yirik qurilishlaridan biri hisoblanadi. XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoroning janubi-g'arbiy qismida bir qancha qurilish inshootlari qurilib bitkaziladi. 1654-1655-yillarda Xiyobon madrasasi, 1670-1671-yillarda Jo'ybori Kalon madrasalarini bunga misol keltirish mumkin.

Shuningdek, Buxoroda Boqimuhammadxon tomonidan masjid, Subhonqulixon tomonidan tomonidan kasalxona, Nodir Devonbegi tomonidan masjid va madrasadan iborat me'moriy majmua-Labi Hovuz kabi ko'plab inshootlar bunyod etilgan. Bu davrda Samarqandda ham ko'plari hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'moriy inshootlar barpo etilgan. Xususan, Samarqanddagi yirik mulkdorlardan biri bo'lgan Yalangto'shbiyning Registon maydonida bunyod etgan ikkita yirik madrasasi diqqatga molikdir. Bu inshootlardan biri Ulug'bek madrasasi qarshisidagi Sherdor madrasasi bo'lib, ular tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi. Madrasaning nomlanishi uning peshtoqiga tasvirlangan ikkita sher tasviri bilan bog'liq bo'lib, ushbu madrasaning naqsh va bezaklarida qadimgi Sharq me'morchiligi an'analari davom etganligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, ashtarxoniylar davrida Balxda Nodirmuhammadxon va Subhonqulixon madrasalari, Balx atrofida qator chorbog'lar, saroylari bilan, Balx arkidagi imoratlar, Jome' masjidi, Hazrati Ali mozoridagi gumbazlar va boshqalar bunyod etilgan. Ushbu inshootlar bu davrda mamlakatda mavjud bo'lgan o'zaro urushlar-u murakkab siyosiy vaziyatga qaramasdan Movarounnahr me'morchiligida azaliy an'analari davom etganligidan dalolat beradi. Aynan shu davrda ham Movarounnahr me'morchilik an'analari saqlanib qolganligini yuqorida nomi tilga olingan inshootlarning bunyod etilganidan bilish mumkin.

Ashtarxoniylar hukmdorlar davrida ham xonlikning madaniy hayoti to'xtab qolmadi. Xonlar mamlakatda inshootlar qurilishi, madrasalar bunyod etilishi, ta'lim rivojlanishiga ham e'tibor qaratganlar. Amalga oshirgan islohotlari xonlik aholisining ahvolini, madaniy hayotini yaxshilashga xizmat qilgan. Bu islohotlar XVII-XVIII asrlarda xonlikda yozilgan asarlarda ham o'z aksini topgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib monumental qurilishlar kamaysa-da, shaharning markaziy qismlarida vujudga kelayotgan ansambllar o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turavergan. Jumladan, Labi Hovuz ansambli fikrimiz isbotidir. 1651-1652-yillarda Ulug'bek madrasasi ro'parasida Abdulazizxon madrasasi bunyod etilishi bilan Buxorodagi qo'sh madrasalar soni yana bittaga ortgan. Bundan tashqari, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi. 1637-yilda esa

Mag'oki Ko'rpa masjidi qad rostlagan. Hukmdor qarorgohi sanalmish Ark qo'rg'onida joniylar hukmronligi davrida ko'plab inshootlar qad ko'targan. Bu haqida Nosirxon To'raning "Tahqiqoti Arki Buxoro" kitobida yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Masalan, Abdulazizxon davrida barpo etilgan Marosimxona binosi, Subhonqulixon davrida qad ko'targan Jome' masjidi binolari shular jumlasidandir.

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida mamlakatda jamoat va xo'jalik inshootlarini qurishga ham alohida e'tibor berilgan. Bu davrda Balx va uning atrofida ham bir qancha me'moriy yodgorliklar bunyod etildi. Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Balxning (Shahri Dorun) qadimiy qismida ark ichida hukmdorning muhtasham qarorgohi qurilgan bo'lib, u yerda Shahri Dorundan "Darvoza-i ark" (ark darvozasi) deb nomlangan alohida darvoza olib borilgan. Muallif yana yozadiki, Subxonqulixon Balx arkida oltin va lapis lazuli bilan bezatilgan, balandligi oltmish gazli bino qurdirgan. "Endi bu bino nomukammalligi va ulug'vorligi bilan g'alati (bino) ko'rinadi". Boshqa bir zamondoshimiz Muhammad Mo'minning yozishicha, "ark hududi bir necha hovli, xonaqoh, ayvon va boshqalardan iborat bo'lgan".

Mahmud ibn Valiyning yozishicha, 1610-1611-yillarda yana bir imorat – Davlatxona (hukumat binosi) qad rostlagan bo'lib, uzunligi 50 jarib, eni 2 shariat jaribi bo'lgan, har tomondan o'n ikki o'tish joyi bo'lgan keng maydonni egallagan. Bundan tashqari, ulardan 8 tasi oddiy aholining kirishi uchun mo'ljallangan. Davlatxonning devorlari marmar bilan bezatilgan, ichki xonalari va yo'laklari "Xitoy saroylari va ibodatxonalari kabiligini ko'rib, hayratdan barmoqlarini tishlab qo'yishi uchun" suratlar bilan bezatilgan.

Buxoro xonigida Abdulazizxon (1645-1681) hukmronligi davri ma'naviy-madaniy hayotida ba'zi ijobiy siljishlar yuz beradi. Xon tomonidan bunyod etilgan me'moriy obidalarning ichida eng mashhurlaridan biri Abdulazizxon madrasasi bo'lib, ushbu inshoot O'rta Osiyo me'morchiligining noyob namunasi sanalgan. Ushbu madrasa tashqi interyeri o'ta nozik did bilan ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Unda bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar uyg'unligi muqarnas qismida ajoyib manzara kasb etib turadi. Madrasada ishlatilgan hamma bezaklar – yangi va qadimgi usullarning uyg'unligi qo'llanilishining ensiklopediyasi deb hisoblash mumkin. Sababi ajoyib va fusunkor ushbu madrasaning kitobalari uch xil usulda bezatilgan. Bular mayolikali mozaika, naqshinkor mayolika hamda geometrik mozikadir. Madrasaning ichki qismi Mavlono Muhammad Amin xattot tarafidan suls yozuvi bilan bezatilgan. Abdulazizxon hukmronlik qilgan davrda Registonning shimoliy tomonida Bozori go'sfand(qo'y bozori) bor edi-ki, uning o'rnida katta madrasa bino qildirdi-ki, hozirda uni "Madrasayi bozori go'sfand" deb ataydilar(bu madrasa 1930-1940-yillarda vayron qilingan). Shayx Jalol bilan Qorako'l shaharlari darvozalari orasida Jo'yborda Jome' masjidini ta'mir qildiradi. Shuningdek, Abdulazizxon Buxoroda o'z nomi bilan va Volidai Abdulazizxon, Samarqandda Tillakori madrasalari uning boshqaruvi davrida qurilgan.

Subhonqulixon davrida Balx va Buxoroda ko‘plab me‘moriy obidalar, jumladan, Balxda madrasa, Buxoroda Dorush-shifo, Registonda katta hovuz, Arkda Salom xona va Jome‘ masjidi, shuningdek, Aminobodda chorbog‘ qurilgan. Xususan, XVII asr oxirida Balxda Subxonqulixon keng va baland madrasa qurdirtdi, uning batafsil tavsifi 1694-yildan kechiktirmay va 1686-1687-yillardan oldin tuzilgan vaqf nizomida keltirilgan. Bu hujjatda aytilishicha, bu madrasa “kuygan g‘isht va toshdan qurilgan bo‘lib, uning tashqi va ichki hovlilari kuydirilgan g‘isht bilan qoplangan. Va u baland arklar va gumbazli uyalar, mahobatli portal, markaziy hovli va ikkita katta gumbazli binolardan iborat bo‘lib, ulardan biri tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan, ikkinchisi uning yon tomonida joylashgan va asosiy qismi gumbaz ostida va yon xonalar unga tutash bo‘lib, Qur‘on tomonidan farz qilingan namozlarni o‘qish uchun mo‘ljallangan va masjid vazifasini o‘taydi, shuningdek, tomoshaxona sifatida ham xizmat qilgan. Bundan tashqari, bu madrasaning yuqori va pastki qavatlari 150 ta hujradan iborat. Bu masjid barcha islom diniga e‘tiqod qiluvchilar ixtiyoriga beriladi va diniy ilmlarni o‘rganayotgan talabalar foydasiga bu madrasalar barcha huquq va mulklari bilan vaqfga aylantiriladi.

1682-yilda Buxoroda maxsus saroy kasalxonasi “Dor ush-shifo” (“Davo maskani”) barpo etildi. Bu davo maskanining barpo etilishi o‘sha vaqtdagi Buxoro hukmdori Subxonqulixon nomi bilan bog‘liq. Shifoxona uning farmoni bilan qurilgan edi.

Subxonqulixon (Sayid Muhammad Subxonquli ibn Saidnodirmuhammadxon) ilm fanning ko‘p sohalaridan xabardor bilimdon shoh edi. U ayniqsa, tibbiyot ilmini yaxshi bilardi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Subxonqulixon amaliy tibbiyot bilan ham shug‘ullangan. "Davo maskani" o‘sha zamon me'morchiligi asosida ko‘rkam qilib qurilgan ikki qavatli bino bo‘lgan. Har qavat 9 tadan hujra (palata) va yordamchi xonalardan iborat edi. Kasalxona qoshida qatnab davolanadigan kichik shifoxona (hozirgi tilda ambulatoriya) ham bo‘lgan. "Davo maskani" huzurida tibbiy maktab ham ochilgan. Bulardan tashqari kasalxona majmuasi tarkibiga dorixona va kutubxona ham faoliyat ko‘rsatgan. Kasalxonaga chuqur bilimli va yaxshi tajribali Mirqosim Hakim boshchilik qilgan.

Tibbiy maktab talabalari amaliy mashg‘ulotlarni shu "Davo maskani"da o‘taganlar. Kasalxona va tibbiy maktabda o‘sha davrning yaxshi tajribali hakimlari xizmat qilganlar. Shulardan bizga Xo‘ja Amin Rais, Oxun mullo Abdug‘afur, Hakim Xo‘ja Yoqub, Mullo Mirmuhammad ma'lum. "Davo maskani" majmuasi (Kasalxona, shifoxona, dorixona, tibbiy maktab va kutubxona) vaqf yerlardan olinadigan daromad bilan ta'min etib turilgan. Shu hisobdan tibbiy maktab talabalariga nafaqa ham to‘langan.

Tibbiy maktabning kutubxonasi kitobga juda boy bo‘lgan. Unda Ibn Sinoning "Tib qonunlari"dan tortib, deyarli hamma taniqli hakimlarning asarlari bo‘lgan. Subxonqulixonning maxsus farmoni bilan kutubxonada yig‘ilgan kitoblar o‘rganilib, ularning ko‘piga sharh yozilgan. Talabalar uchun kerakli kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Dorixonada asosan kasalxonada yotib

davolanayotgan bemorlar uchun dori tayyorlaganlar. Unda ikki kishi – “dorixona mudiri va uning yordamchisi ishlagan”.

XULOSA

Buxoro xonligida tinimsiz feodal nizolar, siyosiy tarqoqlik va qo‘shni davlatlar bilan olib borilgan urushlar mamlakatning vayron bo‘lishiga, shaharlar aholisining ko‘payishiga, sug‘orish tarmog‘ining vayron bo‘lishiga, ekin maydonlarining qisqarishiga va feodallar ekspluatatsiyasining kuchayishiga olib keldi. XVII-XVIII asrning birinchi yarmida markaziy hukumat amalda haqiqiy kuchga ega emas edi. Mamlakatni asosan, feodal-qabila zodagonlari vakillari boshqargan. Ma’muriyat markazdan qochishga intiluvchi va o‘lkaning siyosiy birlashuviga qarshi bo‘lgan otaliqlar va o‘zbek qabila zodagonlari, ko‘chmanchi zodagonlar qo‘lida bo‘lgan. Bu ko‘chmanchi zodagonlar o‘zaro urushlar paytida o‘troq aholini talon-taroj qildilar, yashash joylarini vayron qildilar va doimiy chidab bo‘lmas talablarga duchor qildilar.

Katta madaniy yerlar ko‘chmanchilar tomonidan yaylovlar uchun tortib olindi va o‘troq, asosan tojik aholisining bir qismi tog‘li hududlarga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi, buning natijasida dehqonchilik madaniyati maydoni sezilarli darajada qisqardi. Bu esa XVIII asrga kelib, Buxoroda chuqur iqtisodiy tanazzulga va turg‘unlikka, ayniqsa Markaziy Osiyoning markaziy mintaqalarida qishloq xo‘jaligi tanazzulga yuz tutishiga, shuningdek, mamlakatning sug‘orish tizimining keskin qisqarishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хусенов С, Ражабова И. Чор-Бакр. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 139 б.
2. То‘rayev Н. Buxoro tarixi. – Buxoro : Durdona, 2020. – 168-169 б.
3. Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. - 79-80 б.
4. Эшов Б, Одилов А. Ўзбекистон тарихи, I –жилд. – Тошкент: 2014. – 402 б.
5. Mirzo Salimbek. Kashkoli Salimiy. –Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. – 279 б.
6. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti – Toshkent: 2005. – 145 б.
7. Abidova, Z. (2023). WORSHIP OF TREES IN CULTURAL PRACTICE OF THE UZBEKS OF THE KHOREZM OASIS. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 10(3), 10-12.
8. Guzal, R., & Zaynab, A. (2021). The role of Avesta in the formation of a healthy lifestyle in the Khorezm oasis. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 8(1), 8-10.